

VYETNAM TILIDAGI “CAI” VA “CON” HISOB SO‘ZLARINING METAFORIK XUSUSIYATLARI

Qodirova Dilbarxon Mirzaxparovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi katta o‘qituvchisi

qodirova.dilbarxon@yandex.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Vyetnam tilidagi eng ko‘p qo‘llaniladigan hisob so‘zlar – “cái” va “con” ning metaforik xususiyatlari va ularning pragmatik jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda taqqoslama-tahliliy metod asosida bu hisob so‘zlarning an‘anaviy grammatik tizimdagi vazifalari bilan bir qatorda, ularning metaforik kengayish jarayonlari va nutqiy kontekstdagi qo‘llanishlari chuqur yoritilgan.

*Asosiy e‘tibor “cái” va “con” hisob so‘zlarining **pragmatik ahamiyatiga**, ya‘ni so‘zlari kontekstidagi ma‘no, maqsad va nutqiy vazifalariga qaratilgan. Maqolada ushbu birliklar orqali yuzaga keladigan konseptual metaforalar (mavhum tushunchani (m.: vaqt, muhabbat, mo‘lyaklik) boshqa, aniqroq va tanishroq tushuncha (m.: pul, safar, jismoniy narsalar) orqali tushunish.) tahlil qilinadi: masalan, “cái” orqali jonsiz hodisaga insoniy xususiyatlar berilishi (cái lạnh – sovuq, cái buồn – g‘am), yoki “con” orqali tabiat hodisalari va obyektlarning tirik mavjudot sifatida jonlantirilishi (con sóng – to‘lqin, con gió – shamol).*

*Shuningdek, “cái” va “con” ning nutqdagi **emotsional-pragmatik vazifalari** ham ochib berilgan: ular muhabbat, nafrat, hurmat, ironiyani ifodalashda, nutqqa yengillik yoki ifodalilik berishda, shuningdek madaniy va ijtimoiy dunyoqarashni aks ettirishda faol ishlatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu hisob so‘zlar faqatgina ob‘ektlarni sanash yoki tasniflash vositasi emas, balki nutqqa nozik hissiyotlarni, madaniy qadriyatlarni va estetik tafakkurni kiritishda ham muhim lingvistik vosita sifatida xizmat qiladi.*

Bu hodisalarni tahlil qilish Vyetnam tilining semantik va grammatik tuzilishini yanada chuqurroq anglash, uning madaniy xususiyatlarini ochish hamda inson tafakkurining lingvistik ifodasini talqin etishda muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

***Kalit so‘zlar:** Vyetnam tili, hisob so‘zlari (classifiers), cái, con, metafora, konseptual metafora, pragmatika, lingvistik antropologiya, madaniy lingvistika, grammatik-semantik tizim, Thạch Lam, Gió đầu mùa.*

ABSTRACT

This paper examines the metaphorical features and pragmatic functions of the two most frequently used classifiers in Vietnamese — “cái” and “con.” Using a comparative-analytical approach, the study explores not only their traditional grammatical roles within the classifier system but also their metaphorical extensions and context-dependent meanings.

*Particular attention is given to the **pragmatic dimension** of these classifiers, focusing on how they shape meaning, intention, and communicative value in discourse. The paper analyzes conceptual metaphors expressed through these classifiers: for example, “cái” is used to attribute human qualities to abstract or inanimate phenomena (cái lạnh – coldness, cái buồn – sadness), while “con” animates natural elements and objects, presenting them as living entities (con sóng – wave, con gió – wind).*

*Furthermore, the study highlights the **emotional and expressive functions** of “cái” and “con,” showing how they convey affection, contempt, respect, irony, or subtle stylistic nuances, while simultaneously reflecting cultural values and collective worldviews. The findings demonstrate that these classifiers are not merely grammatical devices for counting or categorizing objects, but also powerful linguistic tools for embedding emotions, cultural meanings, and aesthetic perspectives into discourse.*

Analyzing these phenomena contributes to a deeper understanding of the semantic and grammatical structure of Vietnamese, its cultural distinctiveness, and the linguistic expression of human cognition.

Keywords: Vietnamese language, classifiers, cái, con, metaphor, conceptual metaphor, pragmatics, linguistic anthropology, cultural linguistics, grammar–semantics interface, Thạch Lam, Gió đầu mùa.

KIRISH

Vyetnam tilidagi hisob soʻzlari ot va son birliklari bilan birikib, tilning nafaqat grammatik tuzilishini, balki uning madaniy, falsafiy va anʼanaviy qatlamlarini ham ifodalashga xizmat qiladi. Ular turli metaforik xususiyatlar orqali inson tafakkurining oʻziga xosligi va milliy dunyoqarashni aks ettiradi. Metafora esa, oʻxshashlik asosida yuzaga kelib, nutqqa obrazlilik va ifodaviylik bagʻishlaydi. Shu sababli, u nasrda, sheʼriyatda, ogʻzaki nutqda va kundalik muloqotda keng qoʻllaniladi.

Bugungi kunga qadar klassifikatorlar boʻyicha olib borilgan koʻpgina tadqiqotlar, odatda, vyetnam tilidagi hisob soʻz vazifasida keluvchi morfologik

birliklar tizimining tavsifi yoki semantik tashkil etilishining umumiy tahlili bilan bog'liq bo'lib kelmoqda. [15].

Aikhenvaldning 2000 yil nashrdan chiqqan “*Classifiers: A Typology of Noun Categorization Devices*” “Klassifikatorlar: Otlarni turkumlash vositalarining tipologiyasi”) asarida muallif dunyo tillaridagi *nominal tasniflash birliklari* (“noun categorization devices”)ni keng qamrovda tahlilini amalga oshirgan, shuningdek, terminologiyani aniqlashtirishga harakat qiladi, “classifier” tushunchasini faqat numeral classifier emas, balki kengroq — turli xil grammatik qurilmalarga tatbiq qilinadigan kategoriya sifatida oladi. Biroq, aynan Vyetnam tilidagi “con” va “cái” kabi hisob soʻzlar haqidagi maʼlumotlar juda tor doirada, bir nechta joylarda koʻrib chiqiladi, xususan, 9-bob, 211-212-sahifalarda, ““cái” umumiy, jonsiz narsalarni koʻrsatuvchi hisob soʻz sifatida, “con” hayvon va jonli mavjudotlarga xos klassifikatorlar (masalan, *con mèo* “mushuk”, *con chó* “it”) tipik “animate classifier” hisoblanadi”, - deb bayon qiladi va boshqa tillardagi “animate” klassifikatorlar bilan qiyoslaydi. [14.211-212].

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarga oʻdi izlanishlarda tahlillar va boshqa manbalar yordamida “con” va “cái” *birliklarining* semantik xususiyatlari, ishlatilish qoidalari va misollar oʻrganib chiqilib, Aikhenvald ilgari surgan nazariya nechogʻlik asos vazifasini bajarishi mumkinligini kuzatish mumkin boʻladi.

Aikhenvald amalga oshirgan klassifikatorlar tahlilida muhim jihat sifatida *general classifier* (*umumiy tasniflagich*) - hamda *specific classifier* (*maxsus tasniflagich*) farqini koʻrsatadi, shuningdek tasniflash mezonlari (animacy, inanimacy, shakl, funksiya va hokazo) boʻlib, bugungi kunda “con” va “cái” hisob soʻzlari aynan shu mezonlarga binoan qoʻllanilishi yuzasidan tadqiqotlar mavjud, biroq, mavzuni metoforik xususiyatlarining pragmatik tahlili amalga oshirilmagan.

Vyetnam tilida eng koʻp uchraydigan hisob soʻzlar “cái” va “con” nafaqat grammatik koʻrsatkich sifatida, balki koʻplab metaforik maʼnolarni ifodalash imkoniyatiga ega. Ular jonsiz predmetlar, mavhum tushunchalar, insoniy fazilatlar, tabiat hodisalari va jamiyatdagi voqealarni tasniflashda qoʻllanilib, obʼektlarning turi, tabiati, hajmi, dinamik yoki statik xususiyatlarini koʻrsatadi. Shu bois “cái” va “con” oddiy grammatik birliklardan tashqari, muhim madaniy va kognitiv ahamiyatga ega boʻlgan muhim til elementlaridir.

Vyetnam tilida jins grammatik kategoriya sifatida mavjud emas. Masalan, ot, feʼl yoki sifatlar jinsga qarab shaklan oʻzgarmaydi. Shuning uchun, “cái” va “con” va boshqa hisob soʻzlar asosan **semantik kategoriya** (narsaning shakli, turi, xususiyati) va **pragmatik funktsiya** - yaʼni *muayyan vaziyatda, maʼlum bir maqsad*

uchun qanday ishlatilishi va nutqda qanday vazifa bajarishini (munosabat, tahqir, yengillashtirish kabi kontekstga xos ma'nolarni ifodalash) ifodalashda qo'llaniladi.

“Cái” va “con”ning metaforik xususiyatlarini o'rganish dolzarb bo'lib, u vyetnam tilshunosligi, kognitiv lingvistika, madaniy antropologiya va tarjima nazariyasi uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bunday tahlil quyidagi jihatlarida o'z ifodasini topadi:

1. **Tilshunoslik nuqtai nazaridan** – vyetnam tilining klassifikator tizimini chuqur anglash, uni boshqa tillar bilan qiyoslash va til tipologiyasini boyitish;
2. **Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan** – metaforik fikrlash mexanizmlarini yoritish, konseptual metafora nazariyasi (Lakoff va Johnson) bilan uyg'unligini ko'rsatish;
3. **Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan** – til va madaniyat o'rtasidagi aloqani tahlil qilish, madaniy qadriyatlar va ierarxik munosabatlarning til orqali ifodalanishini o'rganish;
4. **Amaliy jihatdan** – vyetnam tilini o'qitishda, tarjimada va madaniyatlararo muloqotda samarali qo'llash.

Shunday qilib, vyetnam tilidagi “cái” va “con” hisob so'zlarini metaforik nuqtai nazardan o'rganish nafaqat grammatik-semantik tizimni, balki xalqning madaniy merosini, estetik qarashlarini va tafakkur tarzini anglashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda **taqqoslama-tahliliy metod** asosiy yondashuv sifatida qo'llanildi. Avvalo, vyetnam tilidagi hisob so'zlar tizimini o'rganishga bag'ishlangan klassik grammatik manbalar (Nguyễn Hữu Quỳnh. *Ngữ pháp Tiếng Việt*. [Vyetnam tili grammatikasi.] NXB Từ Điển Bách khoa. Hà Nội – 2007. Tr. – 271] hamda umumiy semantik nazariyalar (Alexandra Y. Aikhenvaldning *Classifiers: A Typology of Noun Categorization Devices* (Oxford University Press, 2000; 2003 nashri); Lyons, 1995; Clark, 2006) tahlil qilindi. Shuningdek, Vyetnam adabiyotining mashhur namunasidan biri - **Nam Caoning “Đôi Mắt” (“Ko'zlar”)** va **“Chí Phèo” (“Chi Pheo” [asar qahramonining ismi]) asarlari** badiiy material sifatida tanlab olindi va undagi “cái” hamda “con” hisob so'zlarining metaforik qo'llanishi aniqlanib, lingvistik-nazariy asoslar bilan uyg'un holda tahlil qilindi.

Metodologik yondashuv bir necha bosqichda amalga oshirildi:

1. **Nazariy-tavsifiy tahlil** – hisob so'zlarning mohiyatini aniqlash, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini izohlash uchun klassik grammatika manbalari (Nguyễn Hữu Quỳnh, *Ngữ pháp Tiếng Việt*; Nguyễn Tài Cẩn, *Ngữ pháp Tiếng Việt: Tiếng – Từ ghép – Đoàn ngữ*; Nguyễn Tài Cẩn, 1975, *Từ loại danh từ trong tiếng Việt hiện đại*, Alexandra Y. Aikhenvaldning *“Classifiers: A Typology of Noun*

Categorization Devices” (Oxford University Press, 2000; 2003 nashri)) keng o‘rganildi.

2. Struktural-semantik tahlil – *cái* va *con*ning sintaktik va leksik strukturalari, ularning turli kontekstlarda qo‘llanish modellari segmentatsiya va klassifikatsiya usullari orqali aniqlanib, komponentli tahlil yordamida tizimlashtirildi.

3. Adabiy matn tahlili – Nam Caoning “*Đôi Mắt*” (“Ko‘zlar”)eva “*Chí Phèo*” asarlarida ushbu hisob so‘zlarning badiiy qo‘llanishi, metaforik xususiyatlari pragmatik jihatdan alohida ko‘rib chiqildi. Bu orqali grammatik nazariya va badiiy nutqdagi metaforik qo‘llanish o‘rtasidagi uyg‘unlik hamda tafovutlar yoritildi.

Shunday qilib, mazkur metodologiya vyetnam tilidagi *cái* va *con* hisob so‘zlarini grammatik, semantik, pragmatik hamda madaniy jihatdan har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotning yondashuvlar tizimi bu hisob so‘zlarni nafaqat lingvistik birlik, balki madaniy va kognitiv fenomen sifatida ham yoritishga xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Vyetnam tilidagi “*cái*” va “*con*” hisob so‘zlarining metaforik xususiyatlarini o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, kognitiv fanlar va til o‘qitish sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqotlar inson tafakkuri, madaniyat va til o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunishga yordam beradi, shuningdek, til o‘qitish va tarjima sohasida amaliy qo‘llanmalarga ega. Ushbu hodisani chuqur o‘rganish orqali nafaqat Vyetnam tilining o‘ziga xosligi, balki inson tilining universal jihatlari ham yoritiladi.

Vyetnam tilidagi hisob so‘zlari (classifiers / lượng từ) ismni aniqlovchi bilan son o‘rtasida keladi va bu tilning muhim grammatik jihatlaridan biridir. Vyetnam tilidagi hisob so‘zlari orasida “*cái*” va “*con*” eng ko‘p ishlatiladigan va eng ko‘p qarama-qarshiliklarga ega bo‘lgan hisob so‘zlar hisoblanadi. Til o‘rganuvchilar ularning qo‘llanilishida ko‘pincha turli murakkabliklarga uchraydi.

Hisob so‘z (classifier) - bu obyektlarni toifalarga (class) ajratish, ularni sanash yoki aniqlash uchun ishlatiladigan so‘zdir. Vyetnam tilida deyarli barcha oddiy ismlar (ot so‘zlari) son bilan birga kelganda hisob so‘zni talab qiladi va aksariyat quyidagi strukturaga muvofiq qo‘llaniladi.

Struktura: Son + Hisob so‘z + Ism (ot so‘zi)

Misol: *một* (bir) + *cái* (hisob so‘z) + *bàn* (stol) = *một cái bàn* (bir stol)

Vyetnam tilshunosligida hisob so‘zlarning grammatik izohlarida “*cái*” va “*con*” hisob so‘zlari umumiy o‘rganilib, ularning semantik chegaralari Nguyễn Tài Căn (1975) [5.299] va Clark, E.[8] tadqiqotlarida bayon qilinadi. Ularning fikricha, “*cái*”

asosan jonsiz predmetlar, buyumlar uchun ishlatilsa, “con” jonli mavjudotlarni ifodalashda qoʻllanadi. Biroq keyingi manbalar tadqiqi, lugʻat, hikoyalardan jamlangan misollar namunalari bu birliklarning **metaforik kengayishi** kuzatilgani alohida taʼkidlash mumkin.

Xususan, “cái” va “con” hisob soʻzlarining asosiy maʼnolari quyidagicha ifodalanadi.

Qurilma, mexanizm, asbob-uskunalar uchun: Stol, stul, kompyuter, telefon, pichoq, chelak kabi soʻzlar bilan:

- *một cái bàn* (bir stol). [3.30]
- *hai cái điện thoại* (ikki telefon). [3.207]
- *ba cái ghế* (uch stul). [3.243]

Bu yerda jins hech qanday rol oʻynamaydi. “Cái” faqat obʼektning umumiy turini (masalan, qurilma, mebel, idish ekanligini) tasniflaydi.

Yoki, kiyim-kechaklar uchun: Koʻylak, shim, etik, kepka va boshqalar.

- *một cái áo* (bir [dona/ta] koʻylak) [3.19]
- *một cái mũ* (bir [dona/ta]kepka). [3.421]

Shuningdek “cái” birligi otlarning oldidan kelib, mavhum boʻlmagan, aniq, sezilarli, koʻrinadigan narsa yoki hodisa sifatida koʻrsatadi. Bu soʻz oʻzbek tiliga toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilinmaydi, lekin u maʼnoga “shu”, “mana shu”, “oʻsha” kabi aniqlik olib keladi. **Misol:** “cái bàn” (stol) deganida, bu oddiy “bàn” (stol) deyishdan farq qiladi. “Cái bàn” deganida “mana shu [narsa] stol”, “aynan shu stol” degan maʼno anglanadi.[3.30].

“Cái” hisob soʻzining metaforik va majoziy maʼnolari:

Bu erda “cái” nafaqat jismoniy narsalar, balki mavhum tushunchalar, his-tuygʻular, hodisalar va hatto inson aʼzolari uchun ishlatiladi. Bu uning metaforik xususiyatini koʻrsatadi.

a). Mavhum tushunchalar va hodisalarni ifodalash xususiyatiga koʻra, “cái” mavhum narsalarni jismoniy, sezilarli obʼektlarga aylantiradi (yoki: obʼjekt sifatida koʻrsatib), ularni sezilarli va “hissiy” ahamiyatini namoyon qiladi.

Misollar:

(1) Cái chết - Oʻlim; Bu yerda chết soʻzi - “oʻlmoq”, - maʼnoni ifodalaydi “cái” va “chết” soʻzlarining birikishi natijasida “oʻlim” maʼnosiga oʻzgaradi [3.100]. va **metaforik jihatdan:** – “oʻlim” mavhum hodisa, *cái* uni jismoniy, “ushlab boʻladigan” obʼektga aylantiradi.

Pragmatik vazifasiga koʻra, soʻzlovchi oʻlimni bevosita real fakt sifatida taʼkidlaydi, uni nazariy emas, balki “aniq” voqelik sifatida koʻrsatadi. Bu ifoda odatda **qattiq, bevosita ohang** beradi.

Yoki:

“Cái chết là một biểu tượng về sự chấm dứt” - “O‘lim — tugash ramzidir”.¹

Ushbu ibora — falsafiy, adabiy yoki psixologik manbalarda qo‘llaniladigan fikr bo‘lib, u o‘limni nafaqat biologik hodisa, balki hayotning mavhum tugashi, o‘zgarish yoki yangi bosqichning boshlanishi ramzi sifatida talqin qiladi va **“cái”** so‘zining birikishi orqali aynan **urg‘u berish, ta’kidlash** ma’nosini ifodalaydi.

“Cái chết đen”² - “Qora o‘lim” — 14-asrda Yevropani qamrab olgan vabo pandemiyasining metaforik nomi bo‘lib, u nafaqat tarixiy hodisa, balki adabiyotda ham chuqur tasvirlangan. Bu atama nafaqat kasallikning dahshatli oqibatlarini, balki uning ijtimoiy, madaniy va ruhiy ta’sirini ham ifodalaydi.

Metafora va o‘xshashlik xodisasining ifodalanishi

“Qora” so‘zining metaforik ma’nosi:

- Rang sifatida qorong‘ulik, o‘lim va qo‘rquv ramzi.
- Kasallik belgisi sifatida teri ostidagi qon ketishi natijasida paydo bo‘ladigan qora dog‘lar (bubonli vabo belgisi).

O‘xshashlik xodisasi (simvolizm):

- Qora o‘lim nafaqat jismoniy, balki ma’naviy qarorni ham anglatadi (masalan, Dante Aligeriyning “Ilohiy komediya” asaridagi jahannam tasvirlari bilan bog‘lanishi).

- Giovanni Boccaccioning “Dekameron” asarini **1348-yilda Florensiyada yuz bergan bubonli vabo (Qora o‘lim)** davrida yozgan. Asarning kirish qismida vabo juda ta’sirli, realizmga yaqin bo‘lgan tarzda tasvirlanib, pandemiya insoniyatning zaifligi va axloqiy inqirozining ramzi sifatida tasvirlangan.

Filipp Zieglerning 1969 yil nashr qilingan *“The Black Death – Pandemiya tarixi”* asarida **“Qora o‘lim nafaqat tibbiy falokat, balki butun Yevropa tsivilizatsiyasining ruhiy qatlamlarini buzgan global tragediya edi.”** - degan, fikrlar keltirilib, bu fikr pandemiyaning nafaqat demografik, balki madaniy va falsafiy ta’sirini ta’kidlaydi. Rang qorong‘ulik, qayg‘u va noma’lumlikni anglatadi. “Qora” so‘zi nafaqat kasallikning dahshatli oqibatlarini, balki o‘limning to‘satdan va qochib

¹ <https://nguovan.hnue.edu.vn/Sinh-vi%C3%AAAn/Nghi%C3%AAAn-c%E1%BB%A9u/p/van-de-cai-chet-trong-tho-xuan-quynh-652>.

² **Izoh:** “Cái chết đen” là tên gọi của một trận đại dịch thế kỷ 14, chủ yếu là bệnh dịch hạch, đã gây ra cái chết của hàng triệu người ở châu Âu, châu Á và châu Phi. Dịch bệnh này còn được gọi là “Đại dịch Cái chết đen” hoặc “Cái chết đen” do các mảng da đen do hoại tử xuất hiện trên cơ thể người bệnh. - “Qora o‘lim 14-asrda Yevropa, Osiyo va Afrikada millionlab odamlarning hayotiga zomin bo‘lgan pandemiyaga, birinchi navbatda, bubonli vaboga berilgan nom. [Bubonli vabo — bu vabo turi bo‘lib, uning asosiy belgisi tananing turli joylarida (ayniqsa qo‘ltiq osti, chov sohalari, bo‘yin atrofida) limfa tugunlarining kuchli shishishidir. Bu shishlar “bubon” deb ataladi]. Kasallik yuqtirganlarning tanasida qora, gangrenoz dog‘lar paydo bo‘lganligi sababli “qora o‘lim epidemiyasi” yoki “qora o‘lim”, - deb ham ataladi.”.

boʻlmasligini ham bildiradi. Shuningdek, Bu metafora pandemiya davrida odamlarning tengligini (boy-kambagʻal, yosh-qari bir xil tarzda oʻlishini) aks ettiradi.

(2). **Cái số phận - Taqdir**. [3.577]. Metaforik maʼno ifodalash jihatdan: **taqdir** – odatda mavhum, metafizik tushuncha. **Cái** uni inson qoʻlida turgandek “narsa”ga aylantiradi.

Cái số phận - oʻzbek tiliga “taqdir”, - deb tarjima qilinib, **lingvistik jihatdan tahlil qilsak** bu tuzilma (morfologik-semantik jihat):

– **cái** - aslida *konkret narsalarni* bildiruvchi **hisob soʻzi** (danh từ đơn vị) boʻlib, bu yerda mavhum (abstrakt) tushuncha boʻlgan “*số phận*” - “taqdir” soʻzi bilan qoʻshilib, *semantik koʻchishni* - yaʼni, **soʻzning asl (birlamchi) maʼnosi yangi, koʻchma maʼno** hosil qilishi jarayonini yuzaga keltiryapti.

Bu hodisa tilshunoslikda **semantik kengayish, maʼno oʻzgarishi** yoki **koʻchma maʼno hosil boʻlishi** deb ham ataladi

Normal holatda *cái* odatda:

- jism (vật thể)lar;
- narsa (đồ vật)lar;
- his qilinadigan obʼektlar / cụ thể nhìn thấy bilan ishlatiladi.

Yuqoridagi holatda **cái + số phận** tuzilmasida:

– Abstrakt tushuncha → **konkretlashtiriladi**.
– Taqdir → “qoʻlga olinadigan”, “qarshisida ojiz turiladigan” **narsaga** aylantiriladi.

– Klassifikatorning qoʻllanishi bilan “*taqdirning oʻzi, oʻsha taqdir degan narsa*” degan **kuchli urgʻu** paydo boʻladi.

Bu Vyetnam tilidagi **nominalizatsiya + konkretlashtirish** kombinatsiyasi boʻlib, semantik kuchaytirish effektini yaratadi.

Cái + số phận tuzilmasini **progmantik yaʼni nutqning maqsadga yoʻnaltirilgan funksiyasi jihatidan tahlilini** amalga oshirsak:

a) Maqsad: taslim boʻlish va boʻysunishni taʼkidlash

- “Cái số phận”da **fatalizm** (qochib boʻlmaydigan taqdir)³ kuchayadi.
- Soʻzlovchining maqsadi:
 - voqea sababini oʻzida emas, **taqdirda** koʻrsatish
 - oʻz masʼuliyatini kamaytirish
 - yoki tinglovchini “bu sening aybing emas, bu taqdir” degan fikrga koʻndirish.

b) Tinglovchiga taʼsiri

³ **Fatalizm** — bu falsafiy qarash boʻlib, *inson hayotidagi barcha voqealar oldindan belgilangan, ularni oʻzgartirib boʻlmaydi*, degan gʻoyaga asoslanadi. Yaʼni, inson qanday harakat qilmasin, natija baribir taqdir tomonidan belgilangan deb hisoblanadi.

– Taqdirni *real*, *mayjud ob’ekt* sifatida his qilishga majbur qiladi.

– Taqdirga qarshi chiqishning keragi yo’qligi haqidagi **psixologik signallar** uzatiladi.

➤ Qabul qiluvchida:

– “Taqdir bu — bor narsa”

– “Unga qarshi chiqib bo’lmaydi”

degan hissiy-fikriy reaksiya yuzaga keladi.

c) Muloqot vaziyatida funksiyasi

Pragmatik vazifalari quyidagicha bo’lishi mumkin:

1. Tasalli berish:

“*Đó là cái số phận rồi.*” - “*Bu taqdir/ Bu taqdir halos*” Yoki: Bu shunday bo’lishi kerak edi, taqdir shunaqa”; → “Bu taqdir, bundan qochib bo’lmaydi.”

2. Yengillik izlash:

➤ *Odam o’z xatosini taqdirga bog’lab, o’zini oqlashi mumkin.*

Dù số phận mang lại điều gì, đừng sợ hãi hành động - Taqdir nima bo’lishidan qat’i nazar, harakat qilishdan qo’rqmang.⁴

➤ *Achinish* *bildirishi:*

“Cái số phận của nó khổ quá.”⁵ — “Uning taqdiri juda og’ir.”
→ Taqdirni shaxsiylashtirib, achinish tuyg’usini kuchaytiradi.

➤ *Boshqani* *ishontirish:*

Taqdirni “real kuch” sifatida ko’rsatish orqali muloqotdagi ustunlik.

Metaforik jihatdan tahlil qilsak:

a) Metafora turi

Bu — **abstraktdan konkretga** metafora.

Số phận (taqdir) → abstrakt, ko’rinmaydigan tushuncha. **Cái** → moddiy predmetlar uchun ishlatiladigan indicator bo’lib, – bu **so’z yoki grammatik birlikning boshqa so’zlar bilan bog’lanishini ko’rsatadigan, ularning ma’nosini aniqlashga yordam beradigan belgi yoki vosita** vazifasini bajarmoqda. Bunda **Cái + Số phận (taqdir)** bilan birikib, shu orqali tinglovchi so’zning mavhum emas, balki konkret ekanini tushunadi.

Kombinatsiya natijasida:

⁴ https://voh.com.vn/song-dep/cau-noi-hay-ve-so-phan-514321.html?utm_source=chatgpt.com Những câu nói hay về số phận, danh ngôn số phận ý nghĩa.

⁵ <https://www.saostar.vn/sac-mau-cuoc-song/nguoi-so-kho-de-nhan-biet-qua-3-dac-diem-hay-xem-minh-co-hay-khong-202409181734503929.html> Người số khổ dễ dàng nhận biết qua 3 đặc điểm, hãy xem mình có hay không

- Taqdir “ushlab bo‘ladigan narsa” bo‘lib qoladi.
→ Taqdir **odamdan tashqaridagi kuch** sifatida tasvirlanadi.
→ Undan qochish yoki o‘zgartirish mushkul bo‘lgan **ob’ekt** sifatida idrok qilinadi.

b) Metaforik qalinlashuv (intensifikatsiya)

“Cái số phận” orqali:

- ☞ taqdir *shaxsiylashtiriladi*,
- ☞ unga “*mavjudlik*” / “*borlik*” (existence) xususiyati beriladi,
- ☞ u *predmet darajasiga tushiriladi*,
- ☞ mazmun: “*Bu shunchaki g‘oya emas, u bor va u senga ta’sir qilad*”

degan konnotatsiyani tug‘diradi.

c) Emotsional rang (konnotatsiya)

- og‘irlik
- noilojlik
- bo‘ysunish
- iztirob
- muqarrarlik

Bu birikma shu sababli **dramatik yoki fojiali kontekstlarda juda kuchli ishlaydi.**

Umumiy xulosa

“Cái số phận” — bu lingvistik jihatdan:

- mavhum tushunchani predmetlashtiruvchi,
- semantik kuchaytiruvchi,
- konnotativ ma’no yaratadigan konstruksiya.

Pragmatik jihatdan:

- nutqda ta’sir o‘tkazuvchi,
- bo‘ysunish/fatalizmni kuchaytiruvchi,
- tinglovchida real va kuchli “taqdir” obrazi yaratadigan

vosita hisoblanadi.

Metaforik jihatdan:

- metafizik “taqdir”ni materiyaga aylantiradi,
- taqdirni “bor narsa”, “insondan tashqari kuch”, “qarshi chiqib bo‘lmaydigan ob’ekt” sifatida tasvirlaydi.

Matnda qo‘llanilish mohiyatiga ko‘ra, bu shakl ko‘pincha diniy yoki falsafiy nutqda ishlatiladi, **umid, ishonch yoki taslim bo‘lish** ohangini kuchaytiradi.

(3). **Cái sự nghiệp (karera/mulk/hayotiy yo‘l).** Metaforik ma’no ifodalash jihatdan: Sự nghiệp (“karera” yoki “hayotiy yo‘l”) mavhum jarayon. *Cái* orqali u mulkka o‘xshatilib, “qo‘lga olinadigan” ob’ekt sifatida ifodalanadi.

Pragmatik funksiyasiga ko‘ra:

- Shaxsiy yutuqni yoki “qo‘lga kiritilgan narsani” realroq ko‘rsatadi.
- Nutqda **moddiylashtirish** orqali maqsadning muhimligini urg‘ulaydi.

Matnda qo‘llanilish mohiyatiga ko‘ra, bu shakl rasmiy, motivatsion yoki baholovchi nutqda ishlatiladi (“cái sự nghiệp vĩ đại” – buyuk karera).

b). His-tuyg‘ular va kayfiyatlar njiqtai-nazaridan “cái” hislarni tashqi dunyodan keladigan va inson ta’sir qiladigan narsalar sifatida tasvirlaydigan bo‘lsak, his-tuyg‘ular (masalan, *buồn* – qayg‘u, *vui* – quvonch, *giận* – g‘azab) kabi abstrakt tushunchalarga qo‘shilganda, ularni **predmet sifatida “ob’ektivlashtiradi”**, natijada, his-tuyg‘u inson ongida emas, balki tashqi olamda mavjud bo‘lgandek tasvirlanadi. Bunda HIS-TUYG‘U = [teng] NARSHA / OBYEKT[ga]. Masalan aynan **“Buồn”** asosiy ma’no ifodalovchi so‘z bo‘lib, **“qayg‘uli”**, **“g‘amgin”**, **“afsusda”**, **“xafa”** kabi ma’nolarni bildiradi. Bu his-tuyg‘uni ifodalovchi sifat.

“Cái buồn” birikmasining umumiy ma’nosi: Bu ikki so‘z birgalikda ishlatilganda, **“o‘sha qayg‘u tuyg‘usi”**, **“mana shu g‘amginlik”**, **“aniq bir qayg‘uli holat”** degan ma’noni anglatadi. Ya’ni, bu noma’lum, noaniq bir g‘am emas, balki hozirgi zamonda his qilinayotgan, aniq sezilayotgan, diqqat markazida turgan qayg‘u va g‘amginlik holatidir.

Bu ibora ko‘pincha shaxsning ichki dunyosidagi aniq bir qayg‘uli kayfiyatni ta’kidlash uchun ishlatiladi.

Misollar:

– *cái buồn* → qayg‘u go‘yo moddiy “narsa” bo‘lib, odamni bosadi, unga ta’sir qiladi.

– Bu metafora orqali inson hislari tashqi kuch sifatida tasvirlanadi.

Pragmatik funktsiya [maqsadga erishish, ta’sir o‘tkazish yoki muayyan vaziyatda harakat qilish]ga ko‘ra:

c). Intensifikatsiya (ta’sirni kuchaytirish)

– Oddiy *buồn* (qayg‘u) so‘ziga nisbatan *cái buồn* qayg‘uning og‘irligini kuchaytiradi.

– Gap mazmunida his-tuyg‘u “ko‘rinadigan, seziladigan, odamni bosadigan” kuchga aylanadi.

d). Subyektiv kechinmani obyektivlashtirish

– So‘zlovchi o‘z hisini ichki kechinma emas, balki tashqi “yuk” sifatida ko‘rsatadi.

– Bu tinglovchiga kuchliroq tasavvur beradi: qayg‘u — bu ichkaridagi noaniq hissiyot emas, balki “odamni bosib turgan narsa”.

e). Kommunikativ ta'sir

–So'zlovchi tinglovchida hamdardlik uyg'otish yoki hissiy vaziyatni yanada jonli ifodalash imkoniga ega bo'ladi.

–Pragmatik jihatdan bu **ekspressivlikni oshirish** vazifasini bajaradi.

Misolni quyidagi tahlilini amalga oshiramiz:

• **“cái buồn”** → “qayg'u meni bosdi” (metaforik).

– Subyekt: *men*

– Ob'ekt: *cái buồn* (qayg'u - tashqi predmet)

– Pragmatik effekt: qayg'u odatdagi ichki hissiyot emas, balki tashqaridan kelib odamni bosadigan kuch.

Vyetnam tilidagi hikoyalardan misollar:

1. “Cái buồn lắng lẽ như sương khói bao phủ lấy tôi.” - “*Sokin qayg'u xuddi tuman kabi meni o'rab oldi.*”. [11].

Jumlada qahramonning ichki ruhiy holatini ifodalangan bo'lib, bu qayg'u tashqi hodisalar bilan emas, balki qahramonning o'z ichki dunyosi bilan bog'liq. Metaforik jihatdan asosiy element sifatidagi **“Cái buồn”** — qayg'u, xayoliy bir “shaxsiy” obyekt sifatida tasvirlangan. **“...lắng lẽ như sương khói”** — [tinch, qo'zg'almagan, sokin] **tuman va tutun kabi** tasvirlangan. Bu metafora qahramonning kayfiyatini vizual va sezgir shaklda ifodalaydi. **Qayg'u va tabiiy hodisa o'zaro bog'lanib, qahramonning ichki holati (qayg'u) tabiiy fenomen (tuman, tutun) bilan solishtirilgan va tinch, sokin tuman [tutun] shaxsiy emotsiyani universal vizual obraz orqali ko'rsatib, “qayg'u” “bao phủ lấy tôi” - qahramonni o'rab oladi**, bu fizik xatti-harakat bilan ichki his-tuyg'uni birlashtirib, *harakat va tasvirning vizual aspektini* ifodalaydi. Bu holat metafora orqali his-tuyg'u **harakatli va jonli obrazga** aylanadi. **“Lắng lẽ”** - “jimjit”, “sokin”; **sương khói** esa “sekin tarqaluvchi”, “noaniq” **tarqalish hissi** qahramonning qayg'usi **passiv, ammo doimiy** ekanini ko'rsatadi.

Muallifning **pragmatik maqsadi** qahramon ichki ruhiy holatini kitobxon aniq va to'g'ri tushinishi va his qilishi uchun **“buồn”** fe'li avvalidan **“cái”** qo'llashi uning adabiy mahoratini belgilaydi, **o'quvchida vizual va emosional tasvirni yaratadi**, ichki dunyoni “ko'rish” imkonini beradi. kitobxon jumla orqali qahramonning qayg'usini “tajriba qiladi”, uning ichki dunyosi bilan empatiya [his qilib ko'rish] qiladi. Umuman olganda ichki qayg'u va tashqi tabiat tasviri uyg'unligi orqali dramatik va lirizm hissi yaratiladi.

2. Trong mắt cô ấy luôn chứa **một cái buồn** khó tả - Uning ko'zlarida doimo **ifodalab bo'lmaydigan bir qayg'u** to'plangan. / Uning nigohida doimo **tushuntirib bo'lmaydigan bir g'amginlik** gavdalangan.

“Một cái buồn” (bir qayg‘u) deyish – bu uning ko‘zlarida ma’lum, aniq, lekin so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan bir qayg‘u borligini ta’kidlaydi.

3. Anh ấy uống rượu để quên đi **cái buồn** của mình. - U o‘zining **o‘sha qayg‘usini** unutish uchun aroq ichadi. / U o‘z **qayg‘usini** unutish uchun ichadi.

Bu yerda “cái buồn” aniq bir sababga ega bo‘lgan qayg‘uni anglatadi. Masalan, ishdan bo‘shatilganlik, sevgilisidan ajralish kabi va boshqalar. Bu oddiy “buồn” dan ko‘ra kuchliroq ta’sirga ega.

4. **Cái buồn** hôm nay không giống **cái buồn** hôm qua. - **Bugungi qayg‘u** kechagi **qayg‘uga** o‘xshamaydi. / Bugungi **g‘amginlik** kechagisiga o‘xshamaydi.

Bu yerda “cái” so‘zi har xil vaqtlardagi har xil turdagi qayg‘ularni solishtirishga yordam beradi. Bugungi qayg‘u va kechagi qayg‘u turli-tuman ekanligi ta’kidlanadi.

5. **Misol (She’riy ifoda): Cái buồn** len lên mắt ngán lệ. - **Qayg‘u** ko‘zda yoshga ko‘tarildi (ko‘tariladi)/ aylanadi. / **Qayg‘u** ko‘zlarimga yosh to‘ldirdi.

She’riy usulda “cái buồn” yana muyassar etilgan va u ko‘zda yosh ko‘tarilishining sababchisi sifatida ko‘rsatilgan.

“**Cái buồn**” iborasi oddiy **‘buồn’** (g‘amgin, qayg‘uli) so‘ziga nisbatan aniqroq va ta’sirchanroq ma’no anglatadi. U mavhum emas, balki sezilarli, his etilayotgan, diqqat qaratilgan muayyan bir qayg‘uli holatni ifodalaydi. O‘zbek tilida bu **“nozik” jihat** “bir qayg‘u”, “o‘sha g‘amginlik”, “shu qayg‘u” kabi so‘zlar yordamida yetkazish mumkin, lekin “cái” ning to‘liq vazifasi kontekstga bog‘liq.

6. **“Cái nghèo”** - Vyetnam tilida “qashshoqlik”, degan ma’noni anglatib, **metafora** va **o‘xshashlik** xodisalarining ifodalanishi sifatida Vyetnam adabiyotida va madaniyatida keng qo‘llaniladi. Bu ibora nafaqat moddiy qashshoqlikni, balki ma’naviy, ijtimoiy yoki mavjudotning boshqa jihatlaridagi yetishmovchilikni ham ifodalashi mumkin.

“Cái nghèo”so‘zining **metaforik ishlatilishi**:

“**Cái nghèo**” ko‘pincha inson hayotidagi boshqa muammolar (masalan, ma’naviy qashshoqlik, sevgisizlik, umidsizlik) uchun metafora sifatida ishlatiladi. Adabiyotida qahramonlarning ruhiy azob-uqubatlari “cái nghèo” bilan quyidagicha taqqoslanadi.

f). O‘xshashlik orqali ifodalanishi:

– Qashshoqlik ba’zan tabiat hodisalari (qurg‘oqchilik, kambag‘allik) yoki hayvonlar (orqada qolgan, zaif jonivor) bilan solishtiriladi. Masalan, “Nghèo như con mèo” (“Mushukdek kambag‘al”) kabi iboralarda o‘xshashlik qo‘llaniladi. [19].

Mushukning “meo meo” ovozi vyetnam tilida **“nghèo” (qashshoq)** so‘zi talaffuziga o‘xshashligi tufayli, xalq orasida u qashshoqlik ramzi sifatida qabul

qilingan. Bu ibora **“mushukdek qashshoq”** degan ma’noni anglatadi. U odamning juda kambag‘alligi, nochorligi, hech narsaga ega emasligini ifodalash uchun qo‘llanadi. Shuningdek, Vyetnam xalq og‘zaki ijodida shunga yaqin maqol ham mavjud: **“Mèo đến nhà thì khó, chó đến nhà thì sang”** (“Uyga mushuk kelsa – qashshoqlik, uyga it kelsa – boylik”). Tadqiqotchi **Vũ Đức Huỳnh** fikricha, bu maqol mushuk va itning odamlar hayotidagi xatti-harakatlari bilan bog‘liq. Mushuk odatda o‘zi uchun yashaydi, biror joyda ovqat topmasa, ketib qoladi. It esa uyga sodiq, qo‘riqlaydi va barqarorlik ramzi hisoblanadi. Shu sabab mushuk kelishi – qashshoqlik, it kelishi – boylik sifatida talqin qilingan.[20].

Vyetnam adabiyotida **“cái nghèo”** ko‘pincha quyidagi asarlarda uchraydi:

Nam Caoning “Chí Phèo” (1941) asarida qahramonning ijtimoiy qashshoqlik va inson qadr-qimmatidan mahrum etilishi tasvirlangan.

“Chí Phèo” asarida “cái” so‘zi qatnashgan jumlar

1. *“Hắn chửi đời, chửi trời, chửi cả làng Vũ Đại, chửi tất cả những ai không chửi nhau với hắn. Hắn chửi cha đứa nào đẻ ra cái thân hắn...”*. [12].⁶
→ “U dunyoni, osmonga, butun Vũ Đại qishlog‘ini, hammani so‘kardi. U o‘z tanasini tug‘ib qo‘ygan kimni bo‘lsa ham so‘kardi...”.

Bu yerda **“cái thân”** – “bu tana”/ “uning [butun] tanasi (ni)” degan ma’noda ishlatilgan bo‘lib, **“cái thân hắn”** – metaforik jihatdan **“thân”** (tana, jon)ga **“cái”** qo‘shilishi bilan **tanani oddiy buyum sifatida** ko‘rsatadi. Uni dunyoga kelishiga sabab bo‘lgan insonning insoniylik qadri pasayganligini, u “odam” emas, balki bir “tana” holiga tushganligini ifodalaydi. **Pragmatik jihatdan** Chí Phèo [asar qahramoni] o‘zining hayotidan nafratlanishi, **“cái thân”** deb atash orqali **o‘zini buyumsimon, qadr-qimmatsiz** qilib ko‘rsatishi ifodalanadi. Tinglovchiga bu so‘zning emotsional ta’siri – so‘zlovchi **o‘zini xor, befoyda his qilayotganligini** yetkizishdir.

Muallif asarda uchraydigan shu va boshqa misollarda **“cái” so‘zini metafora va pragmatika orqali qahramonning fojeaviy qismatini chuqur ifodalashda** mahorat bilan yondashib, **“cái”** hisob so‘zini **tanaga oid narsalarda**: cái thân, cái mặt...; **mavhum tushunchalarda**: cái đời (bu hayot), cái làng (o qishloq),...; **harakat-holatlarni**: cái cười (kulgu),... ifodalashda qo‘llaganligini uchratish mumkin. Bu

⁶ **Izoh:** Keltirilgan misol Nam Cao (1915–1951) qalamiga mansub bo‘lib, XX asr vyetnam adabiyotining eng mashhur realizm vakillaridan biridir. Uning **“Chí Phèo”** (1941) asari Vyetnam modern prozasining eng muhim, klassik asarlaridan hisoblanadi. Bu qissa Vyetnam xalqining mustamlakachilik davridagi ijtimoiy hayotini yoritib bergan. Muallif bu asarda **kambag‘al dehqonlarning fojeasini**, jamiyatdagi zulm va tengsizlikni fosh etadi. Chí Phèo obrazi orqali yozuvchi insonning aslida yomon tug‘ilmasligini, balki **jamiyat uni shunday qilishini** ko‘rsatadi. Asar markazida **“inson bo‘lish huquqi”** masalasi turadi: Chí Phèo jamiyatda “men[i] ham odam” deb tan olinmoqchi bo‘ladi, ammo buni hech qachon qo‘lga kiritmaydi.

holat vyetnam tilidagi “cái” klassifikatorining keng qamrovli va metaforik xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatadi.

Quyida “con” hisob so‘zining nutqdagi vazifalarini ko‘rib chiqamiz: “Con” - asosan **hayvonlar** uchun ishlatiladigan hisob so‘z bo‘lib, u daryo, yo‘l, ko‘cha kabi ob‘yektlar va ba‘zi mifologik mavjudotlar uchun ham qo‘llaniladi. Asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:[10].

Barcha hayvonlar uchun: mushuk, it, baliq, qush, fil.

- *một con mèo* (bir mushuk) [3.411].

- *hai con chó* (ikki it). [3.111].

- *ba con cá* (uch baliq). [3.68].

Daryo, yo‘l, ko‘cha, daraxt kabi “cho‘zilgan” yoki “tabiiy” ob‘yektlar uchun:

- *một con sông* (bir daryo). [3.578].

- *một con đường* (bir yo‘l / ko‘cha). [3.231].

- *một con suối* (bir jilg‘a). [3.583].

Ba‘zi mifologik mavjudotlar va jonsiz ob‘yektlarning personifikatsiyasi uchun: iblis, arvoh, ruh.

- *một con ma* (bir arvoh). [3.398].

- Những con ma trong truyện kinh dị Nhật Bản - Yapon dahshatli hikoyalaridagi arvohlar.⁷

- *một con quỷ* (bir iblis). [3.541].

- Mẹ nó là Ê-chit-na, một con quỷ cái nửa người nửa rắn. - Uning onasi yarim odam va yarim ilon bo‘lgan ayol jin Echidna edi.⁸

Ba‘zi kasalliklar, his-tuyg‘ular va holatlar uchun (ularni “jonli” deb hisoblash):

- *một con giận* (bir g‘azab). [3.256].

- *một con sốt* (bir isitma). [3.579].

Qiz bolalar va ba‘zi hollarda ayollar uchun (hurmat yoki mehr bilan):

- *một con bé gái* (bir qiz bola) - Bu yerda “con” asosan “bola” ma‘nosini anglatadi.

- *Con Lan này!* (Ey qiz/Lan!) - Yaqinlik yoki mehr bildiradi.

“Con”ning metaforik qo‘llanishi:

⁷ <https://znews.vn/nhung-con-ma-trong-truyen-kinh-di-nhat-ban-post1413491.html>. Vào những năm 1830, họa sĩ bậc thầy Hokusai đã thực hiện một bộ tranh “Một trăm câu chuyện ma” để lưu truyền những truyện ma kinh dị phổ biến và kinh điển nhất của Nhật Bản. (1830-yillarda mohir rassom Xokusai Yaponiyaning eng mashhur va klassik dahshatli arvohlar haqidagi hikoyalarini xotirlash uchun "Yuzta arvoh hikoyalari" deb nomlangan bir qator rasmlarni yaratdi.)

⁸ (Trích Mười hai kỳ công của Hê-ra-clet, Thần thoại Hy Lạp, Xem thêm tại: ("Geraklitning o'n ikki mehnati", yunon mifologiyasidan parcha, Batafsil ma'lumot uchun: <https://loigiaihay.com/de-thi-hoc-ki-1-van-10-ket-noi-tri-thuc-de-so-11-a154620.html>)

- con đường (yo‘l) - harakat va yo‘nalish metaforasi
- con số (raqam) - dinamika va o‘zgarish metaforasi
- con mắt (ko‘z) - faollik va kuzatish metaforasi

“Con” hison so‘zining metaforik qo‘llanishga doir misollar:

1. Inson fiziologiyasi va his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq metaforalar

“Con mắt” (ko‘z)

- “Con mắt của bão” - bo‘ron ko‘zi (markazi). [21].

“Con tim” (yurak)

- Metaforik: “Con tim nóng bỏng” [22]. - issiq yurak (ehtirosli odam)

“Con giận” (g‘azab)

- Metaforik: “Con giận đang trào lên” - g‘azab ko‘tarilmoqda (his-tuyg‘uning personifikatsiyasi)

2. Tabiat hodisalari va geografik ob‘ektlar

“Con sông” (to‘lqin)

- Metaforik: “Con sóng thịnh nộ”. [23]. - g‘azab to‘lqini (qiyinchiliklar)

“Con gió” (shamol)

- Metaforik: “Con gió đổi thay”. [24]. - o‘zgarish shamoli (ijtimoiy o‘zgarish)

Adabiy matnlarda hisob so‘zlarning bunday semantik kengayishi yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, **Thạch Lam** ijodidagi **“Gió đầu mùa”** (“Mavsum boshidagi shamol”) hikoyasi muhim manba hisoblanadi. Hikoyada **“cái lạnh đầu mùa”** (“mavsum boshidagi sovuq”) birikmasida **“cái”** hisob so‘zi sovuqni predmet sifatida jonlantiradi, uni odam sezadigan, hayotiy voqelikka ta’sir qiluvchi kuchga aylantiradi. Bu tasvir orqali yozuvchi sovuqning oddiy meteorologik jarayon emas, balki bolalarning qashshoqligini va jamiyatdagi tengsizlikni eslatuvchi obraz sifatidagi ahamiyatini ochadi. Shuningdek, **“con gió”** (“shamol”) birikmasida **“con”** so‘zi shamolni tirik mavjudot sifatida tasvirlab, uning bolalar hayotidagi ta’sirini kuchaytiradi. Shamolning qahratonligi, bolalarning bechora holatini ifodalovchi dramatik obraz sifatida jonlantirilishi badiiy vositalar bilan mustahkamlangan. Demak, bu yerda grammatik birlik — hisob so‘zi — faqat sintaktik rol o‘ynamasdan, muallifning estetik niyatini ham ochishga xizmat qilmoqda.

“Con đê” (damba)

- Metaforik: “Con đê chắn sóng”. [25]. - to‘lqinlarni to‘suvchi damba (himoya)

3. Madaniy va an’anaviy tushunchalar

“Con rồng cháu tiên”. [26]. - (ajdarho bolasi, pari nabirasi)

➤ Metaforik: Vyetnam xalqining o‘ziga xos nomi, milliy kimlikni ifodalaydi

“Con ma”(arvoh)

➤ Metaforik: “Con ma đôi”. [27]. - och arvoh (o‘tmishdagi og‘ir xotiralar)

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Vyetnam tilidagi “cái” va “con” hisob so‘zlari tilning grammatik tuzilishidan tashqari, Vyetnam xalqining dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari, an‘analari va falsafiy tafakkurini aks ettiradi. Ular orqali Vyetnam madaniyatining tabiatga hurmati, oilaviy qadriyatlari, an‘anaviy kasblarga nisbati va falsafiy qarashlarini ko‘rish mumkin. Bu hisob so‘zlari til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligining yorqin namunasidir.

Ular hisob so‘zi sifatida nafaqat oddiy narsalarni sanashda, balki nutqda ta’sirchanlik, hissiyot yoki baho-munosabatni kuchaytirish uchun ham qo‘llanadi. Ularning metaforik ishlatilishi tildagi ifodani boyitadi va madaniy jihatdan nutqning nozik tomonlarini yetkazishga yordam beradi.

Xususan, “cái” hisob so‘zi his-tuyg‘ularni ifodalovchi so‘zlar bilan birikkanda pragmatik jihatdan quyidagi metofoirik xususiyatlari ifodalashi mumkin:

–“Cái” abstrakt hissiyotlarni **moddiylashtiradi**;

–Ularni tashqi dunyo kuchi sifatida **ob’ektivlashtiradi**.

–Nutqda **ekspressivlik va dramatiklikni oshiradi**.

–Kommunikativ vazifada esa — **tinglovchida kuchli hissiy tasavvur va hamdardlik uyg‘otadi**.

Xuddi shunday,

–“con” hisob so‘zi asosan jonli mavjudotlar - inson va hayvonlarga xos bo‘lishi bilan birga, metaforik tarzda jonsiz - harakatlanuvchi obyektlar - tabiat hodisalari yoki predmetlarga ko‘chiriladi: “con sông” (“daryo”), “con sông” (“to‘lqin”), “con đường” (“yo‘l”). Bu metaforik kengayish tilshunoslikda **kognitiv metafora nazariyasi** doirasida o‘rganiladi;

– tilshunoslikdagi grammatik izohlar (Nguyen Tan, Hoang Van, Le Quang) va umumiy semantik tadqiqotlar (Lyons, Clark), Nam Cao, Thạch Lam asarlari misolida amaliy dalillar bilan tasdiqlandi. Natijada, “cái” va “con” hisob so‘zlari nafaqat grammatik toifalar, balki badiiy-estetik tafakkurni ifodalovchi kuchli vosita sifatida qaralishi lozimligi aniqlandi;

– “cái” va “con” vyetnam tilidagi eng keng tarqalgan hisob so‘zlar bo‘lib, ular semantik va pragmatik jihatdan murakkab funksiyalarga ega;

– **“cái”** va **“con”** hisob so‘zlarining metaforik xususiyatlarini tadqiq etish nafaqat grammatik tahlil, balki adabiy-estetik idrokni o‘rganish uchun ham muhim ilmiy yo‘nalishdir.

– “**cái**” va “**con**” hisob soʻzlarining tahlili Vyetnam tilidagi tasniflovchi tizimni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi va bu mavzu kelajakdagi alohida tipologik hamda chuqurlashtirilgan pragmatik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Nguyễn Hữu Quỳnh. Ngữ pháp Tiếng việt. [Vyetnam tili grammatikasi.] NXB Từ Điển Bách khoa. Hà Nội – 2007. Tr. – 271.
2. Hoàng Văn. *Từ loại trong tiếng Việt hiện đại*. Hà Nội: NXB Đại học Quốc gia, 2003.
3. Gơ-Le-Bô-Va I.I., Xô-Cô-Lốp A.A. Từ Điển Việt - Nga. [Vyetnamcha-Ruscha lugʻat]. Văn hóa thông tin. Hà Nội – 2003. Tr. – 792.
4. Nguyễn Tài Cẩn. NGỮ PHÁP TIẾNG VIỆT: Tiếng – Từ ghép – Đoàn ngữ. [VYETNAM TILI GRAMMATIKASI: Boʻgʻin – Murakkab soʻz – Soʻz birikmalari]NXB Đại học và Trung học chuyên nghiệp. Hà Nội – 1977. Tr. – 397.
5. Nguyễn, Tài Cẩn. (1975). Từ loại danh từ trong tiếng Việt hiện đại [Zamonaviy vyetnam tilida soʻz turkumlari]. Khoa học Xã hội. Hà Nội – 1975. Tr. – 299.
6. Nguyễn Tấn. *Ngữ pháp tiếng Việt*. Hà Nội: NXB Giáo dục, 1987.
7. Lyons, J. *Linguistic Semantics: An Introduction*. Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
8. Clark, E. *First Language Acquisition*. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
9. Thạch Lam. *Gió đầu mùa*. Hà Nội: NXB Văn học, 1937.
10. Alexandra Y. Aikhenvald. *Classifiers: A Typology of Noun Categorization Devices* (Oxford University Press, 2000; 2003 nashri). 211-212 b.
11. Nam Cao. “Đôi Mắt” (“Koʻzlar”).
<https://vietmessenger.com/books/?title=ddoi%20mat%20nc&page=2>
https://isach.info/story.php?story=doi_mat_nam_cao&chapter=0000
12. Nam Cao. “Chí Phèo” (Chi Pheo).
https://isach.info/story.php?list=story&author=nam_cao
13. (Nguyễn Hữu Quỳnh, *Ngữ pháp Tiếng Việt*; Nguyễn Tài Cẩn, *Ngữ pháp Tiếng Việt: Tiếng – Từ ghép – Đoàn ngữ*; Nguyễn Tài Cẩn, 1975,
14. Alexandra Y. Aikhenvaldning “*Classifiers: A Typology of Noun Categorization Devices*” (Oxford University Press, 2000; 2003 nashri))

Jurnallar:

15. Loan Dao The Australian National University, Canberra, *The Vietnamese classifiers ‘CON’, ‘CÁI’ and the Natural Semantic Metalanguage (NSM) approach*:

A preliminary study — Loan Dao; Proceedings of the 42nd Australian Linguistic Society Conference (2011).

Vebsayt

16. <https://vietmessenger.com/books/?title=ddoi%20mat%20nc&page=2>
17. https://isach.info/story.php?list=story&author=nam_cao
18. https://isach.info/story.php?story=doi_mat_nam_cao&chapter=0000
19. <https://www.google.com/search?q=%E2%80%9CNgh%C3%A8o+nh%C6%B0+con+m%C3%A8o%E2%80%9D>
20. <https://www.google.com/search?q=V%C5%A9+%C4%90%E1%BB%A9c+Hu%E1%BB%B3nh.+%E2%80%9CM%C3%A8o+%C4%91%E1%BA%BFn+nh%C3%A0+th%C3%AC+kh%C3%B3%2C+ch%C3%B3+%C4%91%E1%BA%BFn+nh%C3%A0+th%C3%AC+sang%E2%80%9D>
21. <https://spiderum.com/bai-dang/Tieu-Luan-Ca-Nhan-Mon-Tam-Ly-Hoc-Quan-Ly-zKZni8jVPlZX>
22. <https://dantri.com.vn/blog/yeu-nuoc-khong-chi-bang-trai-tim-nong-bong-20180613024350361.htm>
23. <https://giobacnho.wordpress.com/2024/04/03/than-cuong-no-c8/>
24. <https://nhandan.vn/trong-nhung-con-gio-doi-thay-post629476.html>
25. <https://www.google.com/search?q=%E2%80%9CCon+%C4%91%C3%AA+ch%E1%BA%AFn+s%C3%B3ng%E2%80%9D>
26. <https://eva.vn/nuoi-con-iq-eq/truyen-co-tich-lac-long-quan-va-au-co>
27. https://vi.wikipedia.org/wiki/Ma_%C4%91%C3%B3i